



UO'T: 633.511.2

## BIRINCHI YILGI SELEKSIYA KO'CHATZORIDA F<sub>4</sub> DURAGAY KOMBINATSIYALAR QIMMATLI XO'JALIK BELGILARINING TAHLILI

**Xakimov Shaxbozbek Shavkatbek o'g'li** 

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti tayanch doktoranti  
e-mail: [xakimov.shaxboz@bk.ru](mailto:xakimov.shaxboz@bk.ru)

**Annotatsiya.** Maqolada beshta F<sub>4</sub> duragay kombinatsiyaning birinchi yilgi seleksiya ko'chatzorida qimmatli xo'jalik belgilari tahlil qilingan. "Andijon-36 × Omad" va "Andijon-35 × Omad" kombinatsiyalari ertapisharlik, ko'sak vazni, mahsuldorlik va tola sifati bo'yicha andoza C-6524 dan ustunligi aniqlandi. Istiqbolli kombinatsiyalar keyingi seleksiya bosqichlariga tavsiya etilgan.

**Kalit so'zlar:** g'o'za, F<sub>4</sub> duragay, seleksiya ko'chatzori, mahsuldorlik, tola sifati

**Аннотация.** В статье проанализированы хозяйственно ценные признаки пяти гибридных комбинаций F<sub>4</sub> в селекционном питомнике первого года. Комбинации "Андижан-36 × Омад" и "Андижан-35 × Омад" превзошли стандарт C-6524 по скороспелости, массе коробочки, продуктивности и качеству волокна. Перспективные комбинации рекомендованы для дальнейших этапов селекции.

**Ключевые слова:** хлопчатник, гибрид F<sub>4</sub>, селекционный питомник, продуктивность, качество волокна

**Abstract.** The article analyzes economically valuable traits of five F<sub>4</sub> hybrid combinations in the first-year breeding nursery. Combinations "Andijan-36 × Omad" and "Andijan-35 × Omad" surpassed the standard C-6524 in earliness, boll weight, yield, and fiber quality. Promising combinations are recommended for further breeding stages.

**Keywords:** cotton, F<sub>4</sub> hybrid, breeding nursery, yield, fiber quality

### KIRISH

G'o'za seleksiyasining samaradorligi ko'p jihatdan to'g'ri tanlangan boshlang'ich materialga bog'liq. Yangi navlar yaratishda duragay kombinatsiyalarning dastlabki avlodlaridayoq qimmatli xo'jalik belgilarini kompleks baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, birinchi yilgi seleksiya ko'chatzorida (F<sub>4</sub>) o'simliklarning vegetatsiya davri, ko'sak vazni, mahsuldorlik va tola sifati ko'rsatkichlarini o'rganish istiqbolli kombinatsiyalarni tanlab olish imkonini beradi.





## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

**Tadqiqot maqsadi.** “Andijon-35 × Omad”, “Andijon-36 × Omad”, “Namangan-77 × Andijon-35”, “Namangan-34 × Andijon-36” va “Omad × Andijon-40” duragay kombinatsiyalarining birinchi yilgi seleksiya ko'chatzoridagi ( $F_4$ ) qimmatli xo'jalik belgilarini o'rganish va istiqbollilarini tanlash.

### MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqotlar Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining seleksiya ko'chatzorida olib borildi. O'rganish obyekti sifatida 5 ta duragay kombinatsiya (Andijon-35 × Omad, Andijon-36 × Omad, Namangan-77 × Andijon-35, Namangan-34 × Andijon-36, Omad × Andijon-40) va andoza sifatida C-6524 navi olindi. Dala tajribalari umumqabul qilingan uslublar asosida o'tkazildi. Fenologik kuzatuvlar, ko'sak vazni, bir tup mahsuldorlik, tola uzunligi, tola chiqimi va mikroneyr ko'rsatkichlari aniqlandi. Olingan ma'lumotlar statistik qayta ishlandi (B.A.Dospexov, 1985).

### NATIJALAR VA MUNOZARA

Birinchi yilgi seleksiya ko'chatzorida o'tkazilgan fenologik kuzatuvlar natijasida duragay kombinatsiyalarning vegetatsiya davri 118 kundan (Andijon-36 × Omad) 120 kungacha (Omad × Andijon-40) o'zgarishi aniqlandi. Eng qisqa vegetatsiya davri Andijon-36 × Omad (112 kun) va Namangan-34 × Andijon-36 (114 kun) kombinatsiyalarida qayd etildi. Bu kombinatsiyalar andoza C-6524 (121 kun) dan mos ravishda 9 va 7 kunga erta pishdi.

Bitta ko'sakdagi paxta vazni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon-36 × Omad kombinatsiyasida aniqlandi (5,95 g). Bu andoza C-6524 (5,20 g) dan 0,75 g ga (14,4%) yuqori. Shuningdek, Namangan-77 × Andijon-35 (5,72 g) va Andijon-35 × Omad (5,51 g) kombinatsiyalari ham andozadan sezilarli darajada yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ldi.

Bir tup o'simlikdagi mahsuldorlik bo'yicha barcha duragay kombinatsiyalar andozadan yuqori natija ko'rsatdi. Eng yuqori ko'rsatkich Andijon-36 × Omad (84,1 g/o'sim.) va Andijon-35 × Omad (83,2 g/o'sim.) kombinatsiyalarida qayd etildi. Bu andoza C-6524 (72,1 g/o'sim.) dan mos ravishda 12,0 g va 11,1 g ga yuqori.

Tola uzunligi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon-36 × Omad (34,4 mm) va Andijon-35 × Omad (33,6 mm) kombinatsiyalarida aniqlandi. Bu andoza C-6524 (33,3 mm) dan mos ravishda 1,1 mm va 0,3 mm ga yuqori. Tola chiqimi bo'yicha eng yuqori natija Andijon-36 × Omad kombinatsiyasida (39,3%) qayd etildi. Bu andoza C-6524 (36,4%) dan 2,9% ga yuqori. Andijon-35 × Omad (38,6%) va Namangan-77 × Andijon-35 (37,2%) kombinatsiyalari ham andozadan yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ldi.

Mikroneyr ko'rsatkichi bo'yicha barcha kombinatsiyalar xalqaro standartlar talab qiladigan optimal oralig'da ekanligi aniqlandi. Eng maqbul ko'rsatkich Andijon-36 × Omad (4,3) va Namangan-34 × Andijon-36 (4,3) kombinatsiyalarida qayd etildi.



## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Omad × Andijon-40 kombinatsiyasi boshqa duragaylarga nisbatan kechpishar (120 kun), past ko'sak vazni (5,05 g) va past mahsuldorlik (77,8 g) ko'rsatkichlariga ega bo'ldi. Bu kombinatsiyada variatsiya koeffitsiyentlari yuqori bo'lib, genetik barqarorlik past ekanligidan dalolat beradi.

1-jadval

### Birinchi yilgi seleksiya ko'chatzoridagi F<sub>4</sub> o'simliklarining qimmatli xo'jalik belgilari

№	Kombinatsiyalar	Vegetatsiya davri, kun	Ko'sak vazni, g	Mahsuldorlik, g	Tola uzunligi, mm	Tola chiqimi, %	Mikroneyr
1	F <sub>4</sub> Andijon-35 × Omad	120	5,51	83,2	33,6	37,6	4,4
2	F <sub>4</sub> Andijon-36 × Omad	118	5,95	84,1	34,4	39,3	4,3
3	F <sub>4</sub> Namangan-77 × Andijon-35	118	5,72	81,4	33,6	37,6	4,4
4	F <sub>4</sub> Namangan-34 × Andijon-36	119	5,40	79,8	33,0	35,0	4,3
5	F <sub>4</sub> Omad × Andijon-40	120	5,05	77,8	32,4	38,4	4,4
6	C-6524 (st)	121	5,20	72,1	33,3	36,4	4,5

### XULOSA

Andijon-36 × Omad kombinatsiyasi qisqa vegetatsiya davri (118 kun), eng yirik ko'sak (5,95 g), eng yuqori mahsuldorlik (84,1 g), eng uzun tola (34,4 mm), eng yuqori tola chiqimi (39,3%) va optimal mikroneyr kabi kompleks ijobiy belgilari bilan ajralib turadi.

Andijon-35 × Omad kombinatsiyasi ham vegetatsiya davri (120 kun), ko'sak vazni (5,51 g), mahsuldorlik (83,2 g), tola uzunligi (33,6 mm) va tola chiqimi (37,6%) bo'yicha andozadan yuqori ko'rsatkichlarga ega.

Omad × Andijon-40 kombinatsiyasi barcha o'rganilgan belgilar bo'yicha past ko'rsatkichlarga ega bo'lib, keyingi seleksion bosqichlarda davom ettirish uchun istiqbolsiz deb topildi.

Andijon-36 × Omad va Andijon-35 × Omad kombinatsiyalari keyingi seleksion bosqichlarda (F<sub>5</sub>-F<sub>6</sub>) davom ettirish va istiqbolli oilalar ajratish uchun tavsiya etiladi.

### ADABIYOTLAR

1. Avtonomov V.A. va boshqalar. G'o'za seleksiyasi va urug'chiligi. – Toshkent, 2019. – 320 b.
2. Dospexov B.A. Metodika polevogo opyta. – M.: Agropromizdat, 1985. – 351 s.
3. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. – Toshkent: O'zPITI, 2007. – 146 b.
4. Egamberdiev A.E. G'o'za seleksiyasida boshlang'ich material. – Toshkent: Fan, 2015. – 210 b.
5. Namazov Sh.E., Raxmonov R.R. Paxta tolasi sifati va uni baholash usullari. – Toshkent, 2020. – 175 b.

